

**ABU NASR FAROBIY TALQINIDA DAVLAT BOSHQARUVI VA RAHBAR
MA’NAVIYATI MASALALARI**

Murodova Dilrabo Shomurodovna

Buxoro davlat universiteti dotsenti, t.f.f.d. (PhD)

Xudoyqulova Feruza Furqatovna

Buxoro davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Sharq Renessansining yirik namoyandasi Abu Nasr Farobiyning ilmiy merosi, xususan, uning davlat boshqaruvi va rahbar ma’naviyatiga oid qarashlari allomaning asarlari orqali tarixiy tahlilga olingan. Tadqiqotda o’rta asr sharoitida davlat va uning vazifalari, rahbar ma’naviyatini belgilovchi mezonlar, adolatli boshqaruv masalalari yoritilgan.*

Kalit so’zlar: *Fozil odamlar, davlat, boshqaruv, adolat, rahbar, ma’naviyat, ijtimoiy iyerarxiya, komil inson, aql, manba.*

Abstract: *This article provides a historical analysis of the scientific heritage of Abu Nasr al-Farabi, a prominent representative of the Eastern Renaissance, particularly his views on public administration and leadership spirituality through the scholar's works. The study highlights the state and its functions, the criteria determining the spirituality of the leader, and issues of fair governance in the medieval environment.*

Keywords: *Virtuous people, state, governance, justice, leader, spirituality, social hierarchy, perfect person, mind, source.*

KIRISH

Kishilik tarixi taraqqiyotida jamiyatni adolat mezonlari asosida boshqarish va munosib yashash masalasi doimo eng dolzarb muammo bo’lib kelgan. Sharq falsafasida davlat boshqaruvini nafaqat huquqiy va siyosiy tuzilma, balki yuksak ma’naviy-axloqiy tizim darajasiga ko’targan buyuk alloma Abu Nasr Farobiy (873-950) “Ikkinchi Muallim” (Al-Muallim as-soniy) sifatida butun bashariyatga o’zining siyosiy qarashlarini asarlari orqali meros qilib qoldirgan. Mutafakkir yashagan davr islom madaniyati va ilm-fani taraqqiy etgan, ammo siyosiy parokandaliklar avj olgan murakkab tarixiy vaziyatga to’g’ri keladi. Shuning uchun ham Farobiyning siyosiy-huquqiy qarashlari shunchaki nazariya emas, balki jamiyatni inqirozlardan qutqarishga qaratilgan ma’naviy dastur sifatida o’z davrining muhim strategiyasi bo’lib xizmat qilgan.

Tadqiqot metodologiyasi: Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik, tizimlilik tamoyillari asosida yoritilgan bo’lib, unda Abu Nasr Farobiy hayoti va ilmiy merosi alloma asarlari asosida o’rganilib tahlil qilingan.

Asosiy qism: Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Abu Nasr Farobiy Sirdaryo qirg’og’idagi Forob hududida turkiy qabilalardan bo’lgan harbiy xizmatchi oilasida

20-Aprel, 2026-yil

dunyoga kelgan. Bu hudud arab xalifaligining shimoliy chegarasi bo‘lib, Somoniylar tomonidan boshqarilgan. Toshkent (Shosh), Buxoro, Samarqandda diniy va dunyoviy ilm sirlarini o‘rganib, keyinchalik xalifaligining madaniy markazi bo‘lgan Bag‘dodga borib ilm olgan. U bu erda o‘rta asr fani va tilining turli sohalari, yunon falsafiy maktablari bilan chuqur tanishib, o‘zga diniy e‘tiqod, falsafiy fiqrdagi ki-shilar bilan ilmiy muloqotda bo‘ladi. Abu Bashar Matta ibn Yunusdan yunon tili va falsafasini, Yuhanna ibn Xiylondan tabobat va mantiq ilmini o‘rgandi. Airim ma‘lumotlarga qaraganda, u 70 dan ortiq tilni bilgan. Hozirgi Eron, Suriya hududlardagi shaharlarda yashab, samarali ijod qilgan alloma 949 - 950 yillarda Misrda, so‘ng Damashqda yashab, shu erda vafot etgan va “Bob as-sag‘ir” qabristonida dafn qilingan [1; B. 25.].

Alloma fanning turli sohalariga oid mavzulardagi nodir asarlari bilan butun insoniyatga boqiy meros qoldirdi. Ayniqsa, o‘rta asr murakkab tarixiy sharoitida davlat boshqaruvi, adolatli hukmdor va jamiyatni halokatdan saqlovchi muhim omillarni “Fozil odamlar shahri” asarida har tomonlama asoslab bergan. Farobiy talqida davlat shunchaki qurolli kuchlar yoki soliq yig‘uvchi tizim emas, balki “Baxt-saodatga erishish vositasi” deb tariflaydi. Mutafakkirning boshqaruv falsafasi markazida rahbar, adolatli boshqaruvchi ma‘naviyati turadi. Uning fikricha, jamiyatning fozilligi (yaxshiligi) bevosita rahbarning ma‘naviy va aqliy kamolotiga bog‘liqdir. Agar rahbar fozil bo‘lsa, u boshqarayotgan jamiyat ham “Fozil Shahar” ga aylanadi, deb ta‘kidlaydi. Aksincha, agar rahbar o‘z nafsiga asir, johil va zolim bo‘lsa u jamiyatni parakondalik va baxtsizlikka yetaklashi muqarrarligini ta‘kidlab o‘tadi.

Allomaning davlat boshqaruvidagi o‘ziga xos yondashuvi shundaki, u jamiyatni bir butun organizm (tirik tana) sifatida ko‘radi. Unda har bir shaxs va har bir tabaqa tanadagi a‘zolari kabi bir-biri bilan uzviy bog‘liq va hamkor bo‘lishi shart. Farobiy siyosiy falsafasining o‘ziga xosligi shundaki, u davlat boshqaruvini tushuntirishda biologik analogiya usulidan samarali foydalangan. Uning talqinicha, mukammal tashkil etilgan davlat (fozil shahar) sog‘lom va butun inson tanasiga o‘xshaydi. Tana a‘zolari o‘zlarining tabiiy funksiyalari bo‘yicha tabaqalashgani kabi, jamiyat a‘zolari ham o‘z qobiliyati va bilimi bo‘yicha ijtimoiy o‘rin egallaydi [2; B. 120]. “Fozil odamlar shahri” asarida jamiyatni inson tanasidagi a‘zolar kabi uchta asosiy darajaga ajratadi.

Farobiy “Fozil odamlar shahri” asarida davlat ierarxiyasini tushuntirar ekan, rahbarni organizmdagi eng muhim a‘zo - yurakka qiyoslaydi. Inson tanasida yurak barcha a‘zolarga hayot uchun zarur bo‘lgan quvvatni yetkazib beradi. Alloma talqinida davlatda ham rahbar xuddi shunday vazifani bajarishi, o‘zining ilmi va fazilati bilan jamiyat a‘zolariga ma‘naviy yo‘nalish berishi har qanday xayrli ish, islohot va qonuniy tartib dastlab rahbarning ongida (yuragida) tug‘ilishi va so‘ngra boshqa a‘zolarga (vazirlar va xalqqa) tarqalishi tahlil qilib beriladi [3; B. 124].

O‘z navbatida alloma rahbar masalasiga ham katta ahamiyat berib, rahbar - bu davlatning nafaqat siyosiy boshlig‘i, balki uning “Axloqiy va aqlli o‘zagi” dir, deb baholagan [4; B. 56]. Yurak qanchalik sog‘lom va kuchli bo‘lsa organizm shunchalik uzoq va farovon yashaydi. Agar rahbar o‘z vazifasini “Yurak” kabi bajara olmasa, davlat “Johil

20-Aprel, 2026-yil

shaharlar” qatoriga tushib qolishini olim o‘zining siyosiy, huquqiy va falsafiy qarashlarida asoslab qoldirgan. Farobiy tomonidan rahbar ma’naviyatining o‘n ikki fazilati sanab o‘tilib, ular shunchaki bir insonning sifatlari emas, balki uni oliy darajada boshqaruvga tayyorlovchi pog‘ona ekanligi asoslab beriladi. Jismoniy mukammallik, zehn va tushunchaning o‘tkirliigi, nafsni jilovlay olish, haqgo‘ylik va to‘g‘rilik, dunyoviy boylikka befarqlik, oliyjanoblik va g‘urur, notiqlik va fashat, ilmga muhabbat va ma’rifatparvarlik, adolatparvarlik, qat’iyat va jasorat kabi ma’naviy mezonlar bugungi kunda ham davlat va jamiyat boshqaruvida o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Asrlar davomida Farobiy tomonidan asoslab berilgan adolatli boshqaruv tamoyillari vatanimiz tarixida yashab o‘tgan hukmdorlarning siyosiy faoliyati orqali o‘z isbotini ko‘rsatib kelgan.

Abu Nasr farobiyning davlat boshqaruvi va komil rahbar haqidagi falsafiy merosini tadqiq etish shuni ko‘rsatadiki, mutafakkir ilgari surgan g‘oyalar insoniyat sivilizatsiyasining barcha davrlari, xususan bugungi kun uchun ham fundamental ahamiyatga ega. Farobiy davlatni shunchaki ma'muriy tuzilma emas, balki har bir a'zosi o'zaro hamjihatlikda harakat qiluvchi yaxlit “Tirik organizm” deb bilishi, zamonaviy ijtimoiy birdamlik va tizimli boshqaruv tamoyillarining tamal toshi hisoblanadi [5; B. 50].

Xulosa. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”, deb bejizga ta’kidlamaganliklarini bugungi tarixiy jarayonlar yaqqol ko‘rsatib turibdi. Davlat boshqaruvi va adolatli jamiyat masalasi ham butun insoniyat sivilizatsiyasi tarixidagi e’tiborga molik muammo sifatida hali hanuz o‘z o‘rniga ega hisoblanadi. Shu jihatdan Abu Nasr Farobiyning ilmiy merosi ijtimoiy-huquqiy jihatdan XXI asr jamiyat boshqaruvida alohida ahamiyat kasb etadi. Alloma asarlarini o‘rganish, tahlil qilish va ulardagi o‘lmas tamoyillardan davlat boshqaruvida foydalanish bugungi globallashuv asrida insoniyat uchun ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. (Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi: M. Mahmudov) - Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2021.
2. Abu Nasr Farobiy. Baxt-saodatga erishuv haqida. - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2012.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021.
4. Xayrullayev M.M. Farobiy va uning falsafiy risolari. - Toshkent: “Fan”, 1963.
5. Sharifxo‘jayev M. Ma’naviyat- taraqqiyot mezonlari. - Toshkent: “Sharq”, 2001.